



## ENDEMIC TYPES OF TULIPA L. TASHKENT BOTANICAL GARDEN

Mamadaliyeva Sobira Bahodir qizi

Junior Researcher, "Introduction of Natural Flora and Plants"

At the Academy of Sciences, Tashkent Botanical Garden

Email: Sobirabahodirzoda@gmail.com

Turgunov Mirabdulla Dehkanovich

Laboratory Manager, "Introduction of Natural Flora and Plants"

At the Academy of Sciences, Tashkent Botanical Garden

E-mail: mirabdulla-turgunov@mail.ru

### Annotation

Information on the distribution, rarity and species listed in the Red Book of Tulipa L., belonging to the flora of Uzbekistan. The article deals with the conservation, reproduction and reintroduction of rare, endemic and protected species in ex-situ conditions.

**Keywords:** Tulipa L., introduction, reintroduction, biodiversity.

### Introduction

O'rta Osiyo lolalarning kelib chiqish markazi va turlarning turli - tumanligi eng yuqori bo'lgan hudud hisoblanadi. Bu yerda lola turlarining hosil bo'lishining tarixiy tarkib topgan to'rtta o'choqlari mavjudligi aniqlangan. 1.O'rta Osiyoning cho'llarida va yarim cho'llarida, boshqasi- baland tog'larda, joylashgan. Uchinchi o'chog'i Pomir-Oloy tog'laridan topilgan. To'rtinchisi esa G'arbiy-Tyan-Shanning adirlari va tog'lariga to'g'ri kelib, barcha o'choqlar o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

A.I. Vvedenskiy va S.S Kovalevskayaning ma'lumotlariga qaraganda O'rta Osiyoda lolalarning 63 ta turlari o'sadi. [2]

Zamonaviy tadqiqotlar natijasiga ko'ra turkum turlarini 100 dan ortiq vakillari aniqlangan. Tulipa L. turkumi – Liliaceae oilasi Osiyoga, Yevropaga, Shimoliy Afrikaga tarqalgan.

Lola turlarini o'rganishga atoqli botanik olim A.I. Vvedenskiy ulkan hissa qo'shgan. U lolalarning 12 ta yangi turlarini kashf etgan[12]

Ro'yxatdan o'rin olgan turlar tarkibini tartiblaganimizda ular qatorida T. mogoltavica Vved., T. dubai Vved., T. carinata Vved., T. bifloriformis Vved., T. Vvedenski., T. dasystemones Vved., T. orithyoides Vved., turlarini sanab o'tishimiz mumkin. Bu turlar Markaziy Osiyo lolalarning asosiy kelib chiqish markazlaridan biri





ekanligini asoslashda muhim ahamiyatga ega. Ular orasidan ko'p turlar bir bir biridan qiyin farqlanadi.

Masalan, *T. oasystemonoides* Vved va *T. oasystemon* Regel. Mutaxassislar ularni piyozni o'rab turuvchi qoplama qobiqlarining konsistensiyasi va har bir qobiq ichki yuzasining tukliligi darajasiga qarab farqlaydilar.[2]

Materiallar va uslublar.

**Bizning tadqiqotimizning obykti O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga [1] kiritilgan noyob, endim lola (Tulipa L.) turlari ustida kuzatuv hamda tadqiqot ishlarini olib borish hisoblanadi.**

**Turlarning ekologik va geografik tarqalishi haqida ma'lumotlar quyidagi adabiyotlarda keltirilgan[3][4]**

Zamonaviy tadqiqotlar natijasiga ko'ra turkum turlarini 100 dan ortiq vakillari aniqlangan. Ayni paytda Tulipa turkumining O'zbekiston florasida 34 turi ro'yxatga olingan.

#### **TULIPA AFFINIS BOTSCHANTZ**

Poyasining uzunligi 15-30 sm, piyozi uzunchoq, tuximsimon, diametri 2-3 sm, barglari 3 tako'kimtir ustki tomoni tukli, chetlari oqish, uzunligi 21-sm va eni 6,2 sm. Guli bitta 4-5sm. Aprelni o'rtasida va oxirlarida gullaydi. Jizzax, Navoiy viloyatlari, (Oqtog', Turkiston, va Nurota tog' tizmalarida uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan endim tur. [2]



1-rasm Tulipa affinis Botschantz.



2-rasm Tulipa Kaufmanniana Regel



3-rasm Tulipa Schsripovi Tojibaev



4-rasm Tulipa Vvedenskiyi  
Botschantz

### **TULIPA KAUFMANNIANA REGEL**

Bo'yi 10-30, ba'zan 50 sm gacha. Piyozi uzunchoq tuxumsimon, dumoloq . Diametri 6 sm gacha. Seret, tangachalari qoramtir, qo'ng'irdan tillarang. Barglari 2-3 (5) ta, ko'kimtir eng quyidagisining eni 2-20 mm. Nashtarsimon, yoki tasmasimon. Gullari bitta asosan 4-6 sm, odatda sarg'ish qizil, oq sarg'ish, sariq, zarg'aldoq, va och quizili ham uchraydi. Mart- aprelda gullab, may-iyunda mevalaydi. Toshkent va Namangan viloyati, ( Qurama Chotqol, Korjantog' Ugom, Maydontol, Pskom, Ko'ksuv tizmalari) da uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan endim tur.[2].

### **TULIPA SCHSRIPOVI TOJIBAEV**

Poyasi (10) 15-20 sm gacha uzunlikda. Barglari 3 ta chetlari jingalak 7-10 sm. Mart oyida gullab aprelda mevalaydi. Namangan viloyati, (Chotqol va Qurama tizmalarining adirliklarida uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan endim tur.[2].

### **TULIPA VVEDENSKIYI BOTSCHANTZ**

Bo'yi 40 sm, piyozi tuximsimon, diametri 3 sm . Barglari 3-5 taguli bitta uzunligi 4-6 sm . Aprel mayda gullab, iyun-iyulda mevalaydi. Toshkent viloyati, ( Chotqol va Qurama tizmalarida uchraydi. O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobiga kiritilgan endim tur[2].





Afsuski, o'tgan asr oxiriga kelib antropogen omillar ta'sirining kuchayisi natijasida ko'plab turlar arealining qisqarib ketishi nafaqat Markaziy Osiyoda

[5] Old Osiyo hududlarida ham jiddiy muammolardan biriga aylanib qolmoqda. Buning asosiy sabablari sifatida , lola piyozlari va gullagan o'simliklarning betartib terib olinishi, tur areallarida chorva mollarining boqilishi, atrof-muhit degedratatsiyasini sanab o'tishimiz mumkin. O'zbekiston Qizil kitobiga lola turkumining 19 turi kiritilgan. [1]

So'ngi yillarda biologik xilma-xillikni asrab qolish, O'zbekiston florasining muhofazaga muhtoj turlarni ex.situ sharoitida tirik kolleksiyalarini yaratish bilan bog'liq loyihalar sababli lolalar kolleksiyasining bir qismini biomorfologik xususiyatlari, qayta tiklash ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tadqiqot olib borilgan turlarning barchasi O'zbekiston uchun endem tur hisoblanadi.

### Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикасининг Қизил китоби, I жилд: Ўсимликлар;
2. Ф.Ў.Ҳасановнинг умумий таҳрири остида. Т.: "Chinor ENK" экологик-ноширлик компанияси. - 356 б.
3. К.Ш.Тожibaev, R.U.Qodirov., О'zbekiston lolalari «Sharq» nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2010.-224 b.
4. Введенский А.И., Ковалевская С.С Tulipa L.- Тюлпан . Определитель растений Средней Азии. Ташкент: Фан , Т. II, 1971, с.94-109.
5. Введенский А.И Род Tulipa L Флора Узбекистана. Т.1. Ташкент, 1941.с. 473-485
6. Sharipov A.H., Pechenitsyn V.P., Ashurmetov O.A Wild tulips of Central Asia. Tulipa and Man. Alma-Ati. 2002. P.36-43

